

## Buxoro viloyatida

### qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


#### 2026- yil yanvar - mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Buxoro viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

#### I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026 - yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5 820,1 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 5 720,9 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 70,7 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 28,5 mlrd so'mni tashkil qildi.

#### Buxoro viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



#### II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026 - yilning yanvar- mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (763,6 mlrd so'm), Buxoro (681,2 mlrd so'm), Romitan (580,9 mlrd so'm), Shofirkon (580,4 mlrd so'm), G'ijduvon (536,1 mlrd so'm) va Kogon (517,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (57,5 mlrd so'm), Buxoro shahar (114,8 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (203,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5 820,1</b>	<b>106,0</b>
Buxoro shahar.	114,8	108,8
Kogon shahar	57,5	3,0 m.
Olot tumani	428,3	105,1
Buxoro tumani	681,2	104,2
Vobkent tumani	445,3	106,1
G'ijduvon tumani	536,1	105,0
Kogon tumani	517,9	102,8
Qorako'l tumani	495,6	103,6
Qorovulbozor tumani	203,8	112,0
Peshku tumani	414,7	106,9
Romitan tumani	580,9	105,8
Jondor tumani	763,6	106,0
Shofirkon tumani	580,4	106,0

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahar (3,0 m.), Qorovulbozor (112,0 %), Buxoro shahar (108,8 %), Peshku (106,9 %), Vobkent (106,1 %), Shofirkon (106,0 %) va Jondor (106,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Kogon (102,8 %), Qorako'l (103,6 %), Buxoro (104,2 %), G'ijduvon (105,0 %), Olot (105,1 %) va Romitan (105,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026 - yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 5 589,8 mlrd so'mni yoki 2025 - yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 429,2 mlrd so'mni (140,3 %), chorvachilik mahsulotlari 5 160,8 mlrd so'mni (103,4 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (729,6 mlrd so'm), Buxoro (663,0 mlrd so'm), Shofirkon (563,8 mlrd so'm) va Romitan (561,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar ( 56,0 mlrd so'm), Buxoro shahar ( 111,7 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini (194,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahar (299,8 %), Qorovulbozor (120,7 %) va Buxoro shahar (109,5 %) tumanlarida qayd etildi. Qorako'l (102,3 %), Kogon (102,8 %) va Olot (103,4 %) tumanida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 78,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 12,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga, 9,8 % i fermer xo'jaliklariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

#### Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Romitan (80,9 mlrd so'm), Qorovulbozor (61,1 mlrd so'm), Buxoro (57,1 mlrd so'm), Jondor (56,6 mlrd so'm) va G'ijduvon (31,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (0,03 mlrd so'm), Kogon (14,1 mlrd so'm) va Buxoro shahar (15,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Jondor (188,3 %), Buxoro shahar (180,4 %), Qorovulbozor (178,0 %), Peshku (148,5 %) va Kogon shaharda (140,3 %) qayd etildi. Buxoro (117,4 %), Qorako'l (118,3 %), Romitan (123,3 %), Olot (128,9 %), G'ijduvon (128,9 %), Shofirkon (135,2 %), Kogon (136,3 %) va Vobkent (137,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 11,9 tonna sabzavot yetishtirilgan.

Hisobot davrida yetishtirilgan jami sabzavotlar – 140,3 % ni tashkil qildi.

2026 - yil yanvar- mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz yetishtirilgan sabzavotlarning 67,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga, 16,3 % i fermer xo'jaliklariga, 16,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

#### 2026 - yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Yanvar-mart 2026 y.	O'sish sur'ati % da
<b>Sabzavotlar jami, ming tonna</b>	<b>11,9</b>	<b>140,3</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,9	117,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1,9	111,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,1	157,7

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi  
dehqonchilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Jami don, tonna</i>	<i>Sabzavotlar, tonna</i>	<i>Meva va rezavorlar, tonna</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	-	11,9	-
Buxoro shahar.	-	0,8	-
Kogon shahar	-	-	-
Olot tumani	-	0,3	-
Buxoro tumani	-	1,9	-
Vobkent tumani	-	0,1	-
G'ijduvon tumani	-	0,5	-
Kogon tumani	-	0,2	-
Qorako'l tumani	-	0,2	-
Qorovulbozor tumani	-	3,1	-
Peshku tumani	-	0,2	-
Romitan tumani	-	3,2	-
Jondor tumani	-	1,2	-
Shofirkon tumani	-	0,2	-

## Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (673,1 mlrd so'm), Buxoro (605,9 mlrd so'm), Shofirkon (541,0 mlrd so'm), Kogon (490,4 mlrd so'm) va Romitan (481,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar ( 55,9 mlrd so'm), Buxoro shahar ( 96,4 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini ( 133,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahar (3,0 m.), Peshku (104,0 %), Romitan (103,9 %), Vobkent (103,5 %) va Shofirkon (103,2 %) tumanlarida qayd etildi. Qorako'l (101,6 %), Kogon (101,9 %), Buxoro shahrida (102,2 %), Jondor (102,2 %), Qorovulbozor (102,2 %), Olot (102,4 %), Buxoro (102,5 %) va G'ijduvon (102,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026 yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 55,8 ming tonna go'sht, 227,9 ming tonna sut, 99,2 mln dona tuxum, 190,4 tonna qirqib olingan jun, 178,0 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 1,0 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni, sog'ib olingan sut – 104,1 % ni, olingan tuxum – 108,5 % ni, qirqib olingan jun – 119,0 % ni, olingan qorako'l teri – 103,8 % ni hamda ovlangan baliqlar – 108,8 % ni tashkil qildi.

2026 - yil yanvar- mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 7,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,6 % i fermer xo'jaliklari, 89,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

### 2026 - yil yanvar- mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Yanvar-mart 2025 y.	O'sish sur'ati % da
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>55,8</b>	<b>103,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,9	107,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	47,2	99,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,7	159,3
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>227,9</b>	<b>104,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	19,7	107,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	203,6	103,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,6	120,6
<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>99,2</b>	<b>108,5</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23,1	100,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	36,2	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi	39,9	120,2



tashkilotlar

<b>Jun, tonna</b>	<b>190,4</b>	<b>119,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	44,6	106,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	136,1	122,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,7	138,7
<b>Qorako'l teri, ming dona</b>	<b>178,0</b>	<b>103,8</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	30,0	104,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	141,3	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,7	148,6
<b>Baliq, tonna</b>	<b>909,3</b>	<b>108,8</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	285,8	112,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	117,2	103,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	506,3	107,8

Shu bilan birga, olingan tuxumning 23,2 % i fermer xo'jaliklariga, 36,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 40,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 23,4 % i fermer xo'jaliklari, 71,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 5,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 16,8 % i fermer xo'jaliklariga, 79,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 31,4 % i fermer xo'jaliklariga, 12,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 55,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

### **Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	<b>Go'sht (tirik vaznda), tonna</b>	<b>Sut, tonna</b>	<b>Tuxum, ming dona</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>55812,9</b>	<b>227909,8</b>	<b>99165,6</b>
Buxoro shahar.	1301,8	1332,2	2869,8
Kogon shahar	848,6	231,9	620,8
Olot tumani	4255,8	16266,7	3304,9
Buxoro tumani	6596,0	26758,7	7851,5
Vobkent tumani	4022,0	22740,4	6094,6

G'ijduvon tumani	4873,7	24172,8	8145,3
Kogon tumani	6012,7	12295,4	22173,3
Qorako'l tumani	4847,4	19707,6	7835,6
Qorovulbozor tumani	1652,0	3809,5	2264,9
Peshku tumani	3411,5	22440,4	2996,7
Romitan tumani	5175,5	22215,9	4183,7
Jondor tumani	6998,6	30753,9	27477,8
Shofirkon tumani	5817,3	25184,5	3346,8

#### IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026 - yilning 1- mart holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 408,7 ming boshga yetdi, (2025- yilning 1- mart holatiga nisbatan 2,6 % ga ko'p), sigirlar 461,7 ming boshga (3,3 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 547,5 ming boshga (3,1 % ga ko'p), parrandalar 7989,9 ming boshga (6,8 % ga ko'p) yetdi.

#### 2026 - yilning 1- aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>1 408,7</b>	<b>102,6</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	117,7	103,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 259,2	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	31,8	130,6
<b>shundan sigirlar</b>	<b>461,7</b>	<b>103,3</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	41,2	102,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	410,2	102,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,3	129,5
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>2 547,5</b>	<b>103,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	426,4	105,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 925,1	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	196,0	109,2
<b>Otlar</b>	<b>8,6</b>	<b>109,0</b>
shu jumladan:		

fermer xo'jaliklari	3,9	113,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3,1	105,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,6	105,4
<b>Parrandalar</b>	<b>7990,0</b>	<b>106,8</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 035,0	106,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 730,7	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3224,3	112,0

2026 - yilning 1- mart holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,9 % i fermer xo'jaliklariga, 88,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 16,7 % i fermer xo'jaliklariga, 75,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 25,5 % i fermer xo'jaliklariga, 34,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 40,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026 - yilning 1- mart holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni, (ming bosh)**

	<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>Parrandalar</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 408,7</b>	<b>2 547,5</b>	<b>7989,9</b>
Buxoro shahar.	6,9	21,0	157,3
Kogon shahar	1,5	4,3	222,7
Olot tumani	126,7	251,0	260,6
Buxoro tumani	132,5	179,7	710,7
Vobkent tumani	127,0	127,6	582,4
G'ijduvon tumani	168,6	320,3	1 103,4
Kogon tumani	90,6	92,1	696,1
Qorako'l tumani	158,0	300,7	471,3
Qorovulbozor tumani	24,0	164,6	254,1
Peshku tumani	130,3	261,4	193,2
Romitan tumani	142,5	227,2	809,3
Jondor tumani	141,4	369,1	2 210,2
Shofirkon tumani	158,7	228,5	318,6

## V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo'jaligi** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

**Dehqon xo'jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

**Tomorqa xo'jaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

**Go'sht yetishtirish** – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
Sh. Shodiyev  
65 505-80-00 (81-10)